

IQTISODIY MUNOSABATLARNI TARKIB TOPTIRISHDA PSIXOLOGIK USULLARNING TUTGAN AMALIY AHAMIYATI

HAYITOV XURSHID XUDOYQULOVICH

*BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI 2-BOSQICH
MAGISTRANTI.*

Annotatsiya: *Maqolada mamlakatimizda yoshlarni, ayniqsa o'quvchilarni iqtisodiy fikrlashga o'rgatish muammosi ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor masalalardan biri ekanligi, qolaversa, davlatchiligimizni va mamlakatimizning iqtisodiy bazasini yaratish, uni dunyoga tanitish, hamkorlik va jahon iqtisodiyotiga qo'shilishning hayotiy zarurati va dolzarbligi hamda bu masalalarning psixologik nuqtai-nazardan ahamiyati haqida batafsil fikr yuritilgan.*

O'zbekistonda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning asosiy sababchisi va uni amalga oshirishga mas'ul shaxs, uning imkoniyatlari va salohiyati masalasi iqtisodiy fanlarning dolzarb muammolaridandir. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi va ko'lami, tabiiyki, birinchi navbatda fuqarolarni iqtisodiy ongiga va iqtisodiy xulqidagi izchil, to'g'ri harakatlarga bog'liq. Bozor munosabatlari aslida mohiyatan psixologik-pedagogik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: «Bozor munosabatlariga o'tishgina bugungi kunda odamning ijodiy va mehnat imkoniyatlarini keng ochishga, boqimandalikni yengishga, yo'qolib ketgan xo'jayinlik hissini qayta tiklashga qodir».

V.Yakovlevning fikricha, o'quvchi yoshlarni iqtisodiy tarbiyalashga doir ko'p yillik tajribani o'rganish haddan tashqari sustlik bilan olib borilmoqda. Natijada iqtisodiy savodxonlik darajasi pasaymoqda, hayotiy iste'molchilikka oqilona munosabatda bo'ladigan, o'z ehtiyojlarini ularni qondirishga doir iqtisodiy imkoniyatlar bilan mulohaza qilishni bilmaydigan va ishlamaydigan o'quvchilar soni ko'paymoqda. Maktab o'quvchilarining 95% i anketa savollariga bergan javoblarida sigaretlar, spirtli ichimliklar va keng reklama qiladigan «Mars», «Snickers» singari oziq-ovqat mahsulotlarida xalq iste'moli mollarning narxiga to'g'ri keltirganlar. Ayni vaqtda so'rab chiqilganlarning atigi 18%i darsliklar uchun to'lanadigan manbalarni aytganlar, xolos. «Oilangizning (yoki shaxsan o'zingizning) qaysi ehtiyojlaringiz davlat iste'mol fondlari hisobidan qondirilmoqda?», degan savolga o'quvchilarning bor-yo'g'i 5%i to'g'ri javob berganlar.

2000 yillarning boshlarida V.Yakovlev olib borgan ilmiy izlanishlari asosida, ... bunday biryozlama «iqtisodiy savodxonlik»ning sabablaridan biri,

bizningcha, turli o'quv yurtlari talabalarinint ijtimoiy-iqtisodiy fanlarga «ikkinchi darajali» deb qarashlari bilan bog'liqdir. Bunda, tabiiyki, ko'p narsa o'qitish sifati va o'qituvchilarga bog'liq. Ba'zi pedagoglar o'quvchilarni murakkab iqtisodiy nazariyalar bilan tanishtirish, ulardan iqtisodiy qonunlarni bilishni talab qilish ortiqcha, maqsadga muvofiq emas, busiz ham o'quvchilardan ko'p narsa talab qilinadi, deb hisoblashadi. Natijada o'quvchilarda fizika, kimyo, matematika qonunlari murakkab bo'lsa-da, zarur ijtimoiy qonunlarni bilish unchalik muhim emas, degan tasavvur shakllanadi. Biznes va tadbirkorlikni ko'pchilik yoshlar ish deb emas, balki muvafaqiyatli tijorat bilimlaridan yog'adigan pul yomg'iri deb qabul qilishadi.

Mutaxassislarning fikricha, maktabda o'qitiladigan fanlar iqtisodiy bilimlar asoslarini egallash imkoniyatini beradi. U faqat amaliyotda qo'llanishi kerak. Tadqiqotlar mobaynida yuqori sinflar o'quvchilarining atigi 26%i darslarda zarur bilim olishlarini aytishadi. Har ikki o'quvchidan biri iqtisodiy mavzuga qiziqishini, lekin maktab uni hozircha qanoatlantirayotganini ta'kidlagan. O'quvchilarning katta qismi iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirishga ommaviy axborot vositalari yordam berishini ko'rsatishgan: so'rab chiqilganlarning 21,5%i gazeta va jurnallarni, 60%i radio va televidenie eshittirishlari hamda ko'rsatuvlarini tilga olishadi.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiy tarbiyaning umumiy maqsadi jamiyat taraqqiyotini belgilovchi ijodkor shaxsni hayotiy faoliyati vositasidan unumli foydalangan holda uning iqtisodiy savodxonligini, iqtisodiy ongini, iqtisodiy fikrlash va iqtisodiy madaniyatlilik darajasini oshirishdan iborat.

Hozirgi kunda mamlakatimizda jahon talabiga mos keluvchi ijodkor shaxsni tarbyailashdek ijtimoiy topshiriq bajarishda davlat manfaatini ko'zlagan holda O'zbekiston davlati mafkurasi, iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib XXI asr zamonaviy ta'lim-tarbiyasini yaratish masalasi nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shunga muvofiq shaxsning kamol topish faoliyati vositasida aniq iste'dodga bog'liq nazariy bilimlar tizimini, shuningdek, iqtisodiy bilim, ko'nikma, malakalar yig'indisi, o'rganuvchining iqtisodiy ongiga bevosita ta'sir etishga imkon beruvchi bosqichlarni amalga oshirish kerak. Maktablar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari bolalarning eng oddiy, shuningdek ancha asosli iqtisodiy bilimlar, iqtisodiy hayot me'yorlari va qoidalarini bilib olishlari, tushunchalarni kengaytirish-lari hamda mustahkamlashlari uchun ularga keng sharoit yaratib berishlari lozim.

Bunda uzluksiz iqtisodiy ta'lim-tarbiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqarishda mamlakatimizdagi barcha davlat boshqaruv organlarining qatnashuvi ko'zda tutiladi.

Hozirgi kun talablariga javob berish barobarida uzluksiz ta'limning yagona tizimi umumta'lim tayyorgarligining uzluksiz ta'limdagi ahamiyati, shaxs barkamolligi, mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsata olishda uzluksiz ta'lim, turli faoliyatlardan vosita sifatida foydalanish, iqtisodiy munosabatlarga jalb etish kabi ilmiy qarashlar tizimi shakllanadi.

Iqtisodiy ta'lim-tarbiyani takomillashtirishini vaqt bilan qat'iy chegaralash mumkin emas. Uning uzluksizligini ta'minlovchi, iqtisodga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tadbirlari tizimidagi markaziy siymo - jahon andozasiga mos keluvchi ijodkor shaxsdir. Shaxsning kamolotga intilishi ijodkorlikni ta'minlaydi. Ijtimoiy muhit, ehtiyoj ijodkor shaxsni yaratuvchi kuchdir. Eng ilg'or fikrlar, mafkura, eng takomillashgan tafakkur vositasida moddiylashganda, seziladigan narsa tusiga aylangandagina odiy tarbiyaning omiliga aylanadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharotida umumta'lim maktablari o'quvchilarida bozor munosabatlarini tarkib toptirishda iqtisodiy psixologik saviyani va to'g'ri tarbiyalangan iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muammosi o'quvchilar ongidagi qator ijtimoiy-pedagogik masalalarni izchillik bilan hal etishni talab qiladi-ki, ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- o'quvchilar ongida bozor munosabatlarining barqarorlashuvini ta'minlash (amaldagi qonun-qoidalar negizida);
- iqtisodiyotning erkinlashtirilishini amalga oshirish (o'quvchilarda yo'qolib ketgan xo'jayinlik hissini shakllantirish asosida);
- xususiy tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish va tadbirkorlar sinfini shakllantirish (o'quvchilar tomonidan kamida o'z biznes rejasi loyahasini yaratish hisobiga);
- joylarda kichik biznesni tashkil etish va investetsiyalar oqimini olib kirish (ayniqsa, qishloq sharoitida o'quvchilarning jonbozligi ta'sirida);
- oilaviy biznesni shakllantirish (oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish orqali);
- fermerlik harakatlarini takomillashtirish va ularning eksport salohiyatini shakllantirish («kichik odam» psixologiyasiga barham berish hisobiga);
- qo'shma korxonalarda tadbirkorlikning samarali usullarini joriy etish (jamoalardagi psixologik muhitni sog'lomlashtirish);
- ushbu faoliyatga imkon beruvchi shaxs sifatlarini tarbiyalash (ijtimoiy xulq normalari va sanktsiyalari asosida pedagogik korreksion ishlarni yo'lga qo'yish);
- o'quvchilar tafakkurida yangicha qarashlarni shakllantirish iqtisodiy bilim asoslarining muhim masalalaridan hisoblangan motivatsiya muammosini izchil ilmiy asosda o'rganish (mag'lubiyatdan qochish va muvaffaqiyatga

erishish motivatsiyasini diagnostika qilish, tavakkalchilikka tayyorlik darajasini aniqlash va shaxsdagi asosiy ehtiyojlarni qoniqqanlik darajasini aniqlash);

- tadbirkorlikning etnopsixologik o'ziga xosligini yoritib berish va bu holat O'zbekiston sharoitida odamlarni, birinchi navbatda o'quvchilarni tadbirkorlikka undovchi motivatsiyalarning ijtimoiy-psixologik tabiatini o'rganish (o'quvchilar tadqiqot ob'ekti hisoblanadigan fundamental, amaliy, ilmiy-texnika dasturlari mazmuni tashkil etuvchi loyihalar (empirik tadqiqotlar) zamirida);
- moliyaviy inqiroz sharoitiga mos tarzda iqtisodiy bilim asoslari fanining yangi davlat ta'lim standartini yaratish va fan dasturini ishlab chiqish (umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun).

Boshqacha qilib aytganda, o'quvchilarda iqtisodiy tafakkurni, ijtimoiy-iqtisodiy hayotga faol munosabatni shakllantirish, ishbilarmon, ruhan tetik fuqarolarning tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish kerakligi biz tanlagan tadqiqot muammosini aniqlashga imkon beradi. Mavzuning muammosi Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov «Iqtisodiyotni erkinlashtirish va jahon iqtisodiy hamjamiyatiga qo'shilish, bozor munosabatlarining qaror topishi va mulkdorlar sinfining shakllanishi» dasturining bajarilishini muvofiqlashtiruvchi hukumat komissiyasi yig'ilishida qo'ygan vazifalarning mazmunidan ham kelib chiqadi. Zero, hukumatimiz rahbari ta'kidlaganidek: «Kichik biznes - jamiyatda ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishga yordam beradigan o'rta tadbirkorlar sinfining paydo bo'lishi demakdir. Bu - respublika bozorini zarur iste'mol tovarlari va xizmatlar bilan boyitishdir. Bu - yangi o'rinlardir. Shuni hamisha nazarda tutish kerakki, faqat kichik va xususiy tadbirkorlikni keng, hamma joyda rivojlantirish hisobidagina g'oyat keskin muammoni - aholini (ayniqsa ortiqcha mehnat zaxiralari mavjud bo'lgan qishloq joylar va mintaqalarda) ish bilan bandligini ta'minlash vazifasini hal qilishga qodir bo'lamiz» .

Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida iqtisodiy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini bilish ilmiy nuqtai nazardan dolzarb bo'lib, bu quyidagilarni hisobga olish va tahlil qilishni nazarda tutadi.

Birinchidan, iqtisodiy boshqaruv tizimini erkinlashtirish: bu maqsadda barcha bo'g'inlardagi rahbar shaxslarda odamlar bilan ishlash va muomalaning yangicha shakllarini hamda mos malakalarning shakllanishiga erishish. Yangicha muomala shakllarini tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik muammosi xo'jalik sub'ektlari bo'lmish insonlarning dastlabki ijtimoiylashuv o'chog'i oilaga, undagi o'zaro munosabatlarga ham bevosita bog'liqdir.

Ikkinchidan, jahon moliyaviy inqirozi sharoitida ham o'qish, ham dehqonchilik yoki qishloq sharoitida fermerlik faoliyatlarini birgalikda tashkil etib kelayotgan talaba-yoshlar ongida "kichik odam" psixologiyasini siqib

chiqarish beqiyos amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bu kabi qarashlarni pedagogik korrektsiyalash davr talabidir.

Uchinchidan, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida iqtisodiy ong va iqtisodiy xulq mexanizmlarini namoyon bo'lishi qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda mehnatga motivatsiyaning yangicha shaklini tarbiyalash zarur. Bu shaxsdan birinchi navbatda muvaffaqiyatga intilishning yetakchi motivga aylanishi va mag'lubiyatdan cho'chish, undan qochish motivatsiyasining chekinishini taqozo etadi. Erkin bozor munosabatlari sharoitida bu motiv daromad olish, mustaqil faoliyat yuritish va o'z xususiy ishini boshlashda tavakkalchilikka moyillik va shu orqali muvaffaqiyatga intilishda namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishning psixologik usullari va ularning qisqacha mazmuni

Umumta'lim maktablarida uslubiy birlashmalar tomonidan 8-9-sinflarda o'qitiladigan «Iqtisodiy bilim asoslari» fanidan ma'ruza amaliy mashg'ulotlarni o'tishda dasturiga katta e'tibor berilib kelinmoqda.

F.Usmonovning ma'lumot berishicha, jahon moliyaviy inqirozi sharoitida ta'lim jarayonini rivojlantirish va o'zgartirish o'qituvchi va sinf o'quvchilarining o'zaro ochiq muloqoti va ishonchli muhitida samarali bo'ladi. Ta'lim jarayonida qo'llanadigan o'yinlar qisqa vaqtga mo'ljallangan bo'lib, guruh bo'lib mashq qilishga odatlantiradi, oldindan tayyorgarlikni talab etmaydi. O'yinlar vaqtida kichik guruhlar faolligi ortadi, ta'lim ishtirokchilarining diqqati ishga (ta'lim jarayoniga) to'liq jalb etiladi.

O'yinlar vositasida o'quvchilarga yangi iqtisodiy bilimlar berish, ko'nikma hosil qilish, kichik guruhlar a'zolarining ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish mumkin. O'yinlarni darsning kirish yoki yakunlovchi qismida o'tkazish mumkin. O'yinlarni maqsadiga ko'ra 7 turga ajratish mumkin:

1. Guruh bo'lib ishlash uchun sog'lom muhit tashkil etishga qaratilgan o'yinlar:

- guruh a'zolarining o'zaro tanishishlariga yordam beradi;
- guruh bo'lib ishlash ishtiyoqini tug'diradi;
- guruh a'zolarining o'zini erkin his etishlarini ta'minlaydi, charchoqni tarqatadi.

2. Umumiy qiziqishlarni aniqlashga yo'naltirilgan o'yinlar:

- guruh a'zolarining ichki munosabatlarni tezda tiklashga yordam beradi (umumiy qiziqishlar, orzularni aniqlash orqali);
- guruhga yangi qo'shilgan a'zolarining (o'quvchilarning) yangi sharoitga moslashishlariga yordam beradi.

3. Guruhning birligini qo'llab-quvvatlovchi o'yinlar:

- o'zaro munosabat me'yorlarini o'rnatishga yordam beradi;

- guruhning birligini, jipsligini mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'ladi.
- 4. O'zaro bog'lovchi o'yinlar:
 - bir mavzudan ikkinchi mavzuga yengillik bilan, tabiiy o'tishni ta'minlaydi;
 - turli tushunchalarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladi;
 - yangi mavzuni o'rganishning yakunlash bosqichini faollashtiradi.
- 5. Rag'batlantiruvchi o'yinlar:
 - guruh bo'lib ishlashga rag'batlantiradi;
 - murakkab mavzularni muhokama qilishga yordam beradi;
 - dars davomida «nafasni rostlab», ishni davom ettirishga yordam beradi.
- 6. Ijodkorlikni rag'batlantiruvchi o'yinlar:
 - dunyoga boshqacha ko'z bilan qarash, ta'limda innovatsion metodlarni qo'llashga yordam beradi;
 - o'yin qatnashchilari o'zlarining yangi qirralarini kashf etadilar, yangilikni qabul qilish ko'nikmasini hosil qiladilar.
- 7. Yakunlovchi o'yinlar:
 - katta mavzularni o'rganishni yakunlash, egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi;
 - ta'limning innovatsion metodlarini baholash va unga munosabat bildirishga o'rgatadi.

Ta'lim jarayonida qo'llangan har bir o'yin yakunida o'qituvchining sharhiga vaqt ajratiladi. Bunda u yoki bu o'yin guruh a'zolari tomonidan qanday qabul qilingani, guruhda qanday g'oyalar tug'dirganini sharhlashga e'tibor beriladi.

Muammoli tajribani bajarishda yuqori baho olishga intilish, o'quv-ijodiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish o'quvchi uchun natijaga baho berish ahamiyati bilan ifoda etiladi.

Baho berish uchun o'quvchining muvaffaqiyatsizlikdan umidsizlanishi, rag'batlantirishga munosabati, o'z natijalariga baho va maqtovlardan ta'sirlanishi asos qilib olinadi.

Muammoli tajribani bajarishda mas'uliyat, burch hissi o'quvchining o'zi va sinf o'quvchilari manfaati o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni qanchalik hal eta olishiga, shu bilan birga sinf o'quvchilari manfaati o'quvchi shaxsiy manfaatidan qanchalik ustun turishi bilan ifoda etiladi. Baho berish mezoni qilib, muammoli tajriba bajarishda o'quvchining sinf oldidagi mas'uliyatni his etishi hamda shaxsiy qiziqishi ijtimoiy manfaatlarga bo'ysunishi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. / Tuzuvchilar: prof. B.Yu.Xodiyev, prof. A.Sh. Bekmurodov, dots. U.V. G'ofurov, dots. B.K. Tuxliyev. – T., 2009. – 120 b.
2. Borisov Ye.F. *Ekonomika: uceb.* – M., 2008. – 320 s.
3. Tojiboyeva D., Xo'jayev N., Avalova G. *Iqtisodiy pedagogika: O'quv qo'llanma.* – T., 2008. – 256 b.
4. Sherbatix Yu.V. *Psixologiya predprinimatelstva i biznesa: Uchebnoye posobiye.* – SPb., 2008. – 304 s.
5. Hayitov O.E., Ochilova G.O. *Tadbirkorlik psixologiyasi: O'quv qo'llanma. 1-kitob. Oliy o'quv yurtlari magistratura bosqichi talabalari uchun // Prof. V.M.Karimovning umumiy tahriri ostida.* – T., 2008. – 144 b.
6. Rayzberg B.A. *Psixologicheskaya ekonomika: Uchebnik. posobiye.* – M.: INFRA-M, 2005. – 432 s.
7. Xo'jayev N., To'rayev X., Saidmurodov S., Hakimov T. *Iqtisodiy bilim asoslari.* – T., 2005. – 120 b.
8. Xo'jayev N., Ivatov I. *Iqtisodiy bilim asoslari.* – T., 1999.

